

SMTI eksperti Moskvada bo'lib o'tgan xalkaro tadbirda ishtirok etdi



Joriy yilning 3-6 iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) eksperti A.Yusupov Rossiya xalklar do'stligi universiteti tomonidan tashkil etilgan tadbirda ishtirok etdi.

Xalkaro konferentsiyada hozirda dunyoda kechayotgan migratsiya jarayonlari tahlil qilindi, ushbu jarayonlarga xavfsizlik, sog'likni saqlash va integratsiya kesimida baho berildi.

Tadbirda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Germaniya, Italiya, Frantsiya, Kipr davlatlaridan migratsiya sohasida ekspert-mutaxassislar ishtirok etishdi.

Konferentsiyada SMTI eksperti A.Yusupov "Mehnat resurslarining transmilliy harakati ob'ektiv xalqaro jarayon" mavzusida ma'ruza kildi. Tadbir ishtirokchilariga O'zbekistonda tashki mehnat migratsiyasini muvofiqlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar, jumladan, mamlakatda bandlikni ta'minlash, yosh avlodni ko'llab-kuvvatlash, yoshlarni o'z salohiyatini yanada to'laroq namoyon qilish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Xususan, O'zbekistonda hozirda hududlarni hamda sanoatni rivojlantirish strategiyasi faol tadbir qilinayotgani bu esa o'z navbatida bandlikni ta'minlashda ko'plab yangi imkoniyatlar yaratilishiga olib kelayotgani aytib o'tildi.

Anjuman ishtirokchilari tomonidan O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy baholandi.